Yakubjonova Nodiraxon Avazxon qizi

O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi genetika va o'simliklar eksperemental biologiyasi inistituti mustaqil tadqiqotchisi

Sabzavot loviyasi kolleksiya nav namunalari oqsil miqdorining tahlili

Annotatsiya: Sabzavot loviyasi donining sifatini oshirish maqsadida seleksiya usullaridan foydalanish, to'g'ri tanlovlar olib borish uning biokimyoviy tarkibiga e'tibor qaratish muhim hisoblanadi. Sabzavot loviyasi donining biokimyoviy tarkibi va sifatining o'zgarishi uning genetik va nav xususiyatlariga, va tuproq-iqlim sharoitiga bog'liqdir. Navlarni baholashda oqsil-moy miqdorini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: oqsil, bona, oltin sakson oltin bo'yin, garmoniya

Ma'lumki, bugungi kunda, oziq-ovqat muammosi, aholini ko'payishi, ekiladigan yer maydonlarini esa kamayishi hamda ekologiyani buzilishi yangi yaratilayotgan navlarga bo'lgan talablarni kuchaytirmoqda. An'anaviy usullar yordamida ko'plab navlar yaratilgan va yaratilmoqda. Lekin, ularning ko'pchiligi zamon talablariga to'liq javob bera olmayabdi. Shuning uchun yangi, noa'anaviy usullarni qo'llab navlarni yaratish bugungi davr talabidir. Buni esa zamonaviy asbob-uskunalarsiz, ushbu uskunalarda ishlay oladigan yetuk mutaxassislarsiz amalga oshirib bo'lmaydi.

Ma'lumki, oxirgi o'n yillikda soya donining sifatini oshirish maqsadida seleksiya usullaridan foydalanib, olib borilgan maqsadli tanlovlar uning kimyoviy tarkibini o'zgarishiga, ya'ni asosiy komponentlar hisoblangan oqsil va moy miqdorini umumiy ko'rsatkichi 49,7 % dan 66,3 % gacha oshishiga erishilgan. Abdurazakova va boshqalarning tadqiqotlarida mahalliy yaratilgan navlarda oqsil va moyning kuchli korrelyatsiyasi kuzatilgan. Adabiyotlarda keltirishilicha, Sabzavot loviyasi donidagi oqsil miqdori 24,0-60 % gacha bo'lishi ta'kidlagan .Allayarov va boshqalarning ta'kidlashicha ular louri uslubi bilan tadqiq qilgan namunalarda oqsil miqdori 39,5% dan 50.6% gachani tashkil qilgan. Sabzavot loviyasi donining sifatini oshirish maqsadida seleksiya usullaridan foydalanish,to'g'ri tanlovlar olib borish uning biokimyoviy tarkibiga e'tibor qaratish muhim hisoblanadi. Sabzavot loviyasi donining biokimyoviy tarkibi va sifatining o'zgarishi uning genetik va nav xususiyatlariga,

va tuproq-iqlim sharoitiga bog'liqdir. Navlarni baholashda oqsil-moy miqdorini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Sabzavot loviyasi dunyoda eng keng maydonlarda yetishtiriladigan moyli ekin, shuningdek insonlar uchun ham, qishloq xo'jalik hayvonlari uchun ham muhim oqsil manbai hisoblanadi

Respublikada bugungi kunda dukkakli ekinlar, jumladan sabzavot loviyasining yangi navlarini sinash va muayyan tuproq-iqlim sharoitga moslashtirish, serhosil, sifatli, ekologik toza don mahsuloti yetishtirish, saqlash hamda tuproq unumdorligini oshirish agrotexnologiyalarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Sabzavot loviyasi urug'ida ko'p miqdorda moy (17...25 %) va oqsil (35...55 %) mavjud, shuningdek eng muhim qishloq xo_jaligi ekinlari orasida birinchi o'rinda turadi

Ma'lumki Sabzavot loviyasining reproduktiv bosqichlarida (R2-R6) abiotik stresslar urug'larning unib chiqish sonini, hayotchanligini va unib chiqish kuchini kamaytirishi va kimyoviy tarkibini o'zgartirishi mumkin Qurg'oqchilik Sabzavot loviyasi urug'idagi oqsil miqdorini kamaytiradigan eng muhim cheklovchi omil hisoblanadi

Agroiqlimiy omillar ta'sirini o'rganish shuni ko'rsatdiki, ob-havo sharoiti va o'sayotgan mintaqaga qarab Sabzavot loviya urug'idagi oqsil miqdori 10-15% gacha o'zgarishi mumkin. Bizning tadqiqotimizda ham, boshqa mualliflarning fikriga ko'ra, harorat oshishi bilan oqsil miqdori oshadi.Moy miqdori namlik va nisbatan past haroratda, oqsil esa quruq ob–havo va yuqori haroratda yuqori bo'lganligi kuzatilgan.

Introduksiya qilingan nav namunalarni seleksiya jarayonlariga jalb etish, urug' tarkibida oqsil va moy miqdori yuqori bo'lgan navlarni yaratish, aholini oqsil va o'simlik moyi bilan ta'minlash, chorvachilik va parrandachilikni rivojlantirish bugungi kun davr talabi bo'lib, dolzarb hisoblanadi.

Sabzavot loviyasi donining sifatini oshirish maqsadida to'g'ri tanlovlar olib borish uning biokimyoviy tarkibiga e'tibor qaratish muhim hisoblanadi Sabzavot loviyasi donining biokimyoviy tarkibi va sifatining o'zgarishi uning genetik va nav xususiyatlariga, va tuproq-iqlim sharoitiga bog'liqdir. Navlarni baholashda oqsil miqdorini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma‘lumki, oxirgi o’n yillikda sabzavot loviyasi donining sifatini oshirish maqsadida maqsadli tanlovlar uning kimyoviy tarkibini o’zgarishiga, ya‘ni asosiy komponentlar hisoblangan oqsil miqdorini umumiy ko’rsatkichi 49,7 % dan 66,3 % gacha oshishiga erishilgan

Adabiyotlarda keltirishilicha, Sabzavot loviya donidagi oqsil miqdori 24,0-60 % gacha bo’lishi ta‘kidlagan Oqsil miqdori va aminokislotalar tarkibi Sabzavot loviyasi turi yoki naviga qarab o’zgarib boradi. Bu xususiyat navlarning genetik jihatdan farqlanishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotlar O’zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi genetika va o’simliklar eksperemental biologiyasi inistitutida olib borildi.

ITI tajriba xo‘jaligining dala maydonlarida olib borildi. O’zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi genetika va o’simliklar eksperemental biologiyasi inistituti labaratoriyasida tajribalar o’tqazildi. Sabzavot loviyasi kolleksiya nav-namunalari urug‘larini Infraskan-3150 qurilmasi yordamida biokimyoviy tarkibi (oqsil va miqdori) tahlil qilindi. Tadqiqot obyekti sifatida Rossiya- Kasnodarga oid ertapishar Amaltiya, Bona,Jingalak sabzavot ,garmoniya,oltin sakson,oltin bo’yin namunalar, andoza nav sifatida zvezda vastoka o‘rtapishar navidan foydalanildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Sabzavot loviyasi kolleksiya nav namunalari donining biokimyoviy tarkibi quyidagicha tahlil qilindi. Jadval natijalariga ko‘ra, nav-namunalarning oqsil miqdori 38,7 % (Jingalak sabzavot) dan 40,0 % (oltin sakson) gacha bo‘lganligi namoyon bo‘ldi. Nav-namunalarning aksariyatida belgi bo‘yicha ko‘rsatkich 38,0-39,0 % ni tashkil etdi.

1-jadval

Sabzavot loviyasi kolleksiya nav namunalari urug‘larining biokimyoviy tarkibi

№	Nav namunalar	Tarkibi(%)		
		oqsil	moy	Oqsil+moy
		M±m	M±m	M±m

1	Amaltiya	39,00±0,25	18,44±0,25	57,44±0,40
2	Bona	39,00±0,29	20,00±0,15	59,00±0,35
3	Jingalak sabzavot	40,00±0,35	20,0±0,18	60,00±32,0
4	Garmoniya	40,00±0,32	19,0±0,17	59,00±0,36
5	Oltin sakson	40,00±0,36	20,0±0,19	60,00±0,42
6	Oltin bo'yin	38,03±0,15	18,62±0,25	56,65±0,35

Zvezda vastoka navida oqsil miqdori 38,03 % ni tashkil etib, Rossiya nav-namunalarining barchasi belgi bo‘yicha andozadan ustunligi qayd etildi. Amaltiya va Bona nav-namunasida ham oqsil va miqdori bo‘yicha yuqori ustunlik qayd etilib, tegishli ravishda oqsil miqdori 40,0 % va 40,0 %, ni tashkil etdi. Ertapishar nav namunalarda daraja bo‘yicha ,oltin bo’yin -o‘rtacha oqsilli (38,70 %) va daraja bo‘yicha o‘rtacha moyli (18,44 %); Bona-o‘rtacha oqsilli (38,92 %) va daraja bo‘yicha o‘rtacha moyli darajadan yuqori (20,0 %), Zoryushka--o‘rtacha oqsilli darajadan yuqori (20,0 %) va daraja bo‘yicha o‘rtacha moyli darajadan yuqori (19,93%), Inga-o‘rtacha oqsilli darajadan yuqori (39,56 %) va daraja bo‘yicha o‘rtacha moyli (18,95 %), o‘rtapishar Da’gavor 302 navi urug‘ining oqsil va moy miqdoriga ko‘ra, 39,23 % o‘rtacha oqsilli darajadan va 20,00 %-o‘rtacha moyli darajadan yuqori bo‘lganligi aniqlandi.(1-jadval)

Adabiyotlar ro’yxati.

1. Atabayeva X.N, Isroilov I.A. Takroriy ekilgan sabzavot loviya navlarining o’sishi, rivojlanishi va hosildorligiga minera l o’g’itlarning ta’siri. Sholichilik va dukkakli-don ekinlarini rivojlantirishning istikbollari: Xalqaro simpozium materiallari-Toshkent, 1998. -B.27-28.

2. Xalikov B.M, Imiiov A.A. Ekish me’yorlari va takroriy ekinlarning tuproq hajm og’irligiga ta’siri. Fermer xo’jaliklarida paxtachilik va g’allachilikni rivojlantirishning ilmiy

asoslari: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya maqolalari to'plami. -Toshkent, O'z PITI. 2006.-B.94.

3. Nosirova M.D. Ispolzovaniye fotosinteticheskoy aktivnoy radiasii (FAR) posevami pojnivnogo masha Vestnik TAU «Kishovarz».-2004.-№2.-S.29-30.